



RESPUBLIKA HUDUDLARIDA AHOLINING DAROMADLARI VA ULARNING TAHLILI

Oripova Muhayyo Makhmudovna

Osiyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasida aholi daromadi darajasi ko'rsatkichlari, turmush sifati indeksi, aholi daromadlari va viloyatlar kesimidagi tahlil qilingan, shuningdek, muallifning soha faoliyatiga oid istiqbolli fikrlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: aholi turmush darajasi, aholi turmush sifati, daromadlar, shaxsiy daromad, real daromad, nominal daromad.

Har bir mamlakat har qanday siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy xarakatlarni joriy etish va ularni amaliyotga tatbiq etishdan maqsadi, aholi turmush darajasini oshirish, ularning manfaatlarini ko'zlash va oxir oqibat mamlakatda iqtisodiy o'sishga erishishdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, yurtimizda yashayotgan har qaysi inson millati, tili va dinidan qat'iy nazar, erkin, tinch va badavlat umr kechirishi, bugungi hayotdan rozi ba'lib yashashi - bizning bosh maqsadimizdir. Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi birinchi navbatda ijtimoiy sohadagi islohotlarimiz samarasi bilan chambarchas bog'liq. Demak, aholining turmush darajasi va daromati jihatidan farqlanishini aniqlash maqsadida tirikchilik minimumi aniqlanadi. Tirikchilik minimumi-iste'mol savatiga asosan belgilanadi. Iste'mol savatini aniqlash uchun unga kiradigan eng zarur oziq-ovqat va




nooziq ovqat mahsulotlari hamda xizmatlar guruhi belgilanadi hamda ularni jon boshiga iste'mol me'yori aniqlanadi. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan Davlat statistika agentligining ma'lumoti asosida 2022 yilda hududlarda aholining umumiy daromadlari ko'rsatkichlari tahlil qilindi.



2022-yil yakunlariga ko'ra, aholining umumiy daromadlari 634,8 trln. so'mni va nominal o'sish ko'rsatkichi 122,3%ni tashkil etdi. Bunda, iste'mol narxlarining o'zgarishi (*narxlar o'zgarishi omillari ta'siri*) hisobiga o'tgan yilning mos davriga nisbatan aholini umumiy daromadlarining real o'sish sur'ati 109,7%ni tashkil etdi. Mazkur ko'rsatkich hududlar kesimida o'rganilganda, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi Toshkent shahrida (37518,0 ming so'm), Navoiy (27420,4 ming so'm), Buxoro (21382,0 ming so'm), Xorazm (19643,5 ming so'm) va Toshkent (18129,4 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan yuqori ko'rsatkichlar qayd etilganligi kuzatildi.



Shu bilan birga, aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmining **eng past ko'rsatkichlari** Qoraqalpog'iston Respublikasi (13253,4 ming so'm), Farg'ona (13607,9 ming so'm) va Namangan (13880,7 ming so'm) viloyatlari hisobiga to'g'ri keldi. Shuningdek, hisobot davrida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning **real o'sishi** (nominal umumiy daromadlarining inflyatsiya indeksiga nisbati) **107,5%**ni tashkil etib, 2021 yilning yanvar-dekabr oylaridagi xuddi shu ko'rsatkichga (110,7%) nisbatan **3,2%**ga **pasayganligini** ko'rish mumkin. Hududlar kesimida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish holati o'rganilganda, aholi jon boshiga umumiy daromadlarning **eng yuqori real o'sish** ko'rsatkichi Xorazm (11,8%) viloyatida kuzatildi. Shu bilan birga, Sirdaryo (6,0%), Buxoro (5,7%) viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi (5,2%), Jizzax (3,2%) va Toshkent (0,1%) viloyatlarida aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sishi o'rtacha respublika darajasidan **past ko'rsatkichni** tashkil etdi. Qolaversa, Navoiy viloyatida (- 0,9%) aholi jon boshiga umumiy daromadlarning real o'sish sur'atlari **pasayish** tendensiyasi qayd etildi.



Bundan tashqari, aholining umumiy daromadlari tarkibi tahlil qilinganda, olingan umumiy daromadlarning 61,6% (2021y.-65%) **mehnat faoliyatidan** olingan daromadlar (*yollanma va mustaqil band bo'lishdan olingan daromadlar*), 29,8% (2021y.-26,2%) **byudjet transferti** va boshqa o'tkazmalardan olingan daromadlar, 6,3% (2021y.-6,7%) shaxsiy iste'mol uchun **o'zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan** olingan daromadlar va 2,3% (2021y.-2,1%) **mol-mulkdan** olingan daromadlar hisobiga to'g'ri keladi. Mazkur ko'rsatkich hududlar qirqimida kuzatilganda, umumiy daromadlar tarkibida **mehnat faoliyatidan** olingan daromadlarning **eng yuqori** ulushi Navoiy (77,9%), Toshkent (73,7%) va Jizzax (73,5%) viloyatlarida, aksincha Samarqand, Xorazm, Surxondaryo, Farg'ona, Namangan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo va Andijon viloyatlarida o'rtacha respublika darajasidan **past ko'rsatkich** kuzatildi. O'z navbatida, aholining daromadlari tarkibi tarmoq va sohalar kesimida tahlil qilinganda, umumiy daromadlar tarkibida **kichik tadbirkorlikdan** olingan daromadlarning ulushi respublika bo'yicha **56,9%ni**, bunda **eng yuqori** ulush Jizzax viloyatida (67,9%) kuzatildi, **eng past** ulush esa Qoraqalpog'iston Respublikasida (50,9%), Navoiy viloyati (49,8%), Toshkent shahrida (47,3%) qayd etildi. Qolgan hududlarda ushbu ko'rsatkich, uxoro (62,9%), Namangan (60,5%), Xorazm (60,2%), Andijon (59%), Qashqadaryo (59,6%),



Toshkent (59,5%), Samarqand (59,1%), Surxondaryo (59,1%), Sirdaryo (58,9%), Farg‘ona (57,3%)n viloyatlarida tashkil etdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2019 yil uchun moljallangan eng muhim ustuvor vazifalar haqidagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018
2. Sh.Sh. Shodmonov,B.E.Mamaraximov.Iqtisodiyot nazariyasi. Ma'ruzalar matni-T.: IQTISOD-MOLIYA, 2016. 462467 betlar